

## O'QUVCHILARGA DARS O'TISH JARAYONIDA ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH

*Kulibayev Fayzulla Abduraxmonovich*

*Toshkent viloyati Olmaliq shahar kasb hunar maktabi*

*Biznes asoslari fani o'qituvchisi*

*Abdumalikova Dilnoza Fayzulla qizi*

*Toshkent viloyati Olmaliq shahar kasb hunar maktabi*

*Matematika fani o'qituvchisi*

*Mamajonova Shahnoza Jo'raxanovna*

*Toshkent viloyati Olmaliq shahar kasb hunar maktabi*

*Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada o'quvchilarga dars o'tish jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni qo'llash, ilg'or pedagogik texnologiyalarning ta'lim tizimiga ta'siri, ta'limda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanishning mohiyati va ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni, ta'lim muassasalarida ta'lim jarayoniga yangicha yondashuv to'g'risida to'liq bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** ilg'or pedagogik texnologiyalar, ta'limni boshqarish tizimlari, ta'lim texnologiyalari, ilmiy-texnik taraqqiyot, ta'lim tizimi.

### **Kirish:**

Bugungi kunda ta'lim texnologiyasi asosiy yordamchi vosita bo'lib qolmay balki, o'quv jarayonining takomillanishida yuqori rol o'ynab, uning tashkiliy shakllari, metodlari, mohiyatini o'zgartiradigan yangi sistema deb tushunilmoqda. Bu esa, o'z o'rnida, o'qituvchi va o'quvchining pedagogik tafakkuriga o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Ta'limda ilg'or innovatsion texnologiyalarning o'rni hozirgi vaqtda eng samarali va an'anaviy foydalanish usuli sanaladi. Bu jadallik bilan rivojlanayotgan zamonda ta'lim tizimini ilg'or texnologiyalarisiz tasavvur qilish qiyin. Shuning uchun ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol foydalanish, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy qilish hozirgi kunning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

### **Adabiyotlar tahlili va metodologiya:**

O'quvchilarning fikr doirasi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan mustaqil fikrlaydigan ishtirokchiga aylantirmoq asosiy sanaladi. O'qituvchi darsda boshqaruvchi o'quvchilar esa, ishtirokchiga aylanmog'i zarur. Ana shu vazifani amalga oshirishda ilg'or texnologiyalarning ustunligini bir necha marotaba isbotini ko'rish mumkin. Innovatsion ta'lim jarayonida foydalaniladigan texnologiyalar ilg'or ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovatsiyalari deb yuritiladi.

О'qituvchi ilg'or texnologiyalarga asoslanib darsni tashkil qilar ekan, turli texnik vositalardan ham foydalanishi, interfaol metodlar yordamida dars o'tishi ham mumkin. O'qituvchining faoliyatida innovatsiyalar qanchalik ko'p bo'lsa, mazmun shunchalik oshadi. Ta'limda ilg'or texnologiyalar va interfaol metodlar to'g'risidagi tasavvurlar barqaror va mukammal shaklga ega emasligini ham e'tirof qilish darkor. Har bir o'qituvchi ta'limda individual ravishda yangilik kiritishi mumkin.

#### **Natijalar:**

O'z fanining mazmun-mohiyati, mavzulari, shu sohadagi yaratilgan ilm-fan yutuqlari va innovatsiyalar to'g'risida yangi ma'lumotlarni o'rgangan holda o'qitish jarayonida ularni qo'llab, misollar keltirib, ta'limda yangi metodni yaratishi, shuningdek shu asosida dars o'tishi mumkin. Ilg'or texnologiyalar o'qituvchi o'z faoliyatidan qoniqmasligidan kelib chiqadi, uni yaxshilashga doir yangilik kiritishga harakat qiladi.

Ilg'or pedagogik texnologiya - bu o'quv jarayonini zamonaviy tashkil qilish tizimi bo'lib, u ta'limning zaruriy sifatini ta'minlaydi va rivojlangan ilmiy-texnik taraqqiyot talablariga javob beradigan, ta'lim shakllarini shakllantirish vazifasini ko'zlagan o'qitish jarayonlarini texnika va inson omillarida, ularning birgalikdagi harakatlari yordamida yaratish, tadbqiq qilishning izchil metodidir. Ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabi bo'lib sanaladi.

#### **Muhokama:**

Ta'lim jarayonida yangi innovatsion texnika-texnologiyalardan foydalangan holda dars o'tish, oxirgi texnikalar bilan jihozlangan laboratoriya xonalaridan foydalangan holda mashg'ulotlar o'tkazish, mutaxassislik bo'yicha, masalan fizika sohasidagi oid so'nggi innovatsiyalar to'g'risida ma'lumotlar keltirib, jahon tajribasidan namunalar keltirib o'tish o'quvchilarni yangilik yaratish ruhida tarbiyalashga turtki bo'ladi.

Binobarin, har qanday texnologiya ta'limning yangi mohiyatini takomillashtiruvchi ta'lim tamoyillariga asoslanadi va ta'lim oluvchi shaxsini tarbiyalash, unda mehnat va muayyan yo'nalishlarda kasbiy ko'nikmalarni hosil qilishga yo'naltiriladi. Ta'lim jarayonining faol sub'ektlari o'qituvchi va o'quvchilar bo'lib, ularning hamkorlikdagi faoliyatlari muayyan mavzu bo'yicha kam kuch va vaqt sarflangan holda nazariy va amaliy bilimlarni chuqur o'zlashtirish imkonini yaratuvchi jarayonning umumiy mohiyatini tavsiflaydi.

#### **Xulosa:**

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, o'qituvchining faol, samarali faoliyat ko'rsatishiga yo'naltirilgan ta'lim jarayonining metodik ishlanmasidan farqli shaklda, ta'lim jarayonini faollashtirish va takomillashtirishga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalari ta'lim oluvchilarga qaratiladi hamda ularning shaxsiy va o'qituvchi bilan birgalikdagi faoliyatini hisobga olgan holda o'quv materialini o'zlashtirishga

sharoit yaratadi, ta'lim-tarbiyasi butun mashg'ulot mobaynida o'quvchilarning faolligi va qiziquvchanligini doimiy tarzda shakllantirib borish maqsadini ko'zda tutadi, o'quv omillarini yaratishga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiya talablarini o'quv yoki ishlab chiqarish faoliyatiga tezkor jalb qilish imkonini beradi. Aks holda, yetarli darajada tushunarli bo'lmagan yoki aniq natijani ko'zlanmagan topshiriqlar mashg'ulotning samarasiz yakunlanishiga olib kelishi mumkin.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyala. – T.: Iste'dod, 2008.
2. Ishmuhamedov R.J, Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar.– T.: Iste'dod, 2010.
3. Tolipov O', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. - T.: Fan 2006.
4. Abduqodirov A.A., Begmatova N.X. Ta'lim muassasalarida multimedia texnologiyasidan foydalanish uslubiyoti– Qarshi: 2011.
5. Avliyakov N. X., Musayeva N. N. Modulli o'qitish texnologiyalari //T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti. – 2007.